

SHE’RIyatda turna obrazi

(Omon Matjon she’rlari misolida)

Pirnazarova Manzura Matnazarovna

f.f.n., dotsent

Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Omon Matjon she’riyatida turna alohida timsol darajasida shakllanganligi yoritib berilgan. Shoир ijodida turna yana bir muhim tushuncha – qadriyat timsoliga aylangani she’rlar tahlili orqali yoritilgan. Shoир timsollari tilida esa bu hol osmon – borliq tushunchasi bilan bog’lanishi oydinlashtirilgan. Omon Matjon ijodida tabiat mavzusini o’z xususiyatlariga ko’ra alohida tiplarga ajratib tahlil qilish, uning badiiy mahoratini ham, ruhiy dunyosini ham teranroq anglash imkonini berishi kabi xulosalar chiqarilgan.

**Kalit sozlar:** timsol, ramz, monolog, salaflar, ijtimoiy mavzu, biografik metod

Jumagul Jumaboyeva talqini bilan aytganda, “Omon Matjon she’rlarining aksariyat qahramonlari qushlar, parrandalar” [Jumaboyeva J. 1:63]. Masalan, Omon Matjon she’riyatida turna alohida timsol darajasida shakllangan. Omon Matjon insonlarga qadimdan ma’lumligiga yarasha turli xalqlar madaniyatida turli fikr va tuyg’ular timсоли bo’lgan turna obraziga yana qanday o’ziga xoslik kirta olganini ko’rishimiz uchun ular haqida imkon qadar to’xtalishimiz kerak. Masalan, shoир ijodida turna oydin umid ramzi ekanini Omon Matjonning o’zi bir she’rida ochiq bayon qiladi:

Navbahorning sodiq bu elchilar,  
Oydin umid ramzi,  
qutlug’ bir tug‘yon,  
– Kelarlar muqaddas buzilmas safda,  
O’zgargan bo’lsa ham ne davru davron. [Omon Matjon. 2:288]

Demak, Omon Matjon uchun turnalar naqadar e’tiborli ekaniga diqqat qaratamiz. Sababi Omon Matjon boshqa jonzotlar kabi, ular xoh real, xoh xayoliy jonzot bo’lsin, tabiiy xosiyatlaridan ijtimoiy ma’no uqadi va topa biladi. Mana shulardan biri yuqoridagi satrlarda namoyon bo’lganidek, davru davronlar o’zgarsa ham, ularning safi o’zgarmasligi, ya’ni sadoqati, asriy an’analarga sodiqligi. Muhimi, odamzot uchun davru davron hukmi vojibga aylangan davrda, o’tgan asr poyonlarida yozilgan bu she’r. Ehtimol, shoир o’sha paytda (nashrlarda she’r yozilgan yil ko’rsatilmagan, uning ilk bora “Yonayotgan daraxt” to’plamida sanasi qayd etilmagan) siyosiy evrilishlar sabab butun bir mamlakat, ne-ne millat, elatlar bir safdan ikkinchi safga o’tib ovvora bo’layotganini bir nech bor ko’rgan shoир uchun turnalarning bu tabiiy xislati g’oyat noyob fazilat bo’lib ko’ringan bo’lsa ajab emas. Shuning uchun shoир qo’nishga yer izlayotgan turnalarga o’z yelkasini tutib berib, ularning qanotlaridan yetajak ozorga ham rozi bo’ladi:

Turnalar!

Kelinglar,  
Elkamga qo‘ning!  
Qo‘llarimga qo‘ning  
boshim,  
ko‘ksimga...  
Ne tog‘lardan oshgan ho‘l qanotingiz  
Tars-tars urilsinlar yuzim-ko‘zimga. [Omon Matjon. 2:289]

Omon Matjon nazdida turnalarning eng muhim fazilatlaridan yana biri birdamligi, jipsligidir. Ana shu fazilat qanchalik ijtimoiy ahamiyatga egaligini tushungan shoir ularning yurtga qaytishini shaxsiy bayramiga aylantiradi:

Ana, ana ular! Safbasta, mumtoz,  
Barisi bir jonu, bir tanu bir par.  
Izidan olamni yetkizib parvoz,  
Qaytib kelayotir yurtga turnalar. [Omon Matjon. 2:114]

Omon Matjon ijodida turna yana bir muhim tushuncha – qadriyat timsoliga aylangan. Shuning uchun ham yurtga qaytayotgan bir qadriyat jamiyatning har bir a’zosi tomonidan qutlanishi, ardoqlanishi lozim. Shoir timsollari tilida esa bu hol osmon – borliq tushunchasi bilan bog‘lanadi. Yana bir e’tiborli jihat shoir bu she’rida mavhum hislarni rangin bir holda tasvirlab, ularni o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zi chizgan suvratda namoyish etishga intiladi. She’r mutolaasi asnosida o‘quvchi sog‘inchni osmonga hamrang tarzda yashil, mujdani qizg‘aldoq kabi arg‘uvon, xabarni loladek qirmizi tasavvur etadi. She’rning “*Qirlar lahza sayin o‘zga turlanar*” misra ta’sirida har lahzada ming bir tus olayotgan, o‘z shodligini tusdan tusga o‘tib izhor qilayotgan qirlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Osmoq sog‘inch kabi poyonsiz, yashil,  
Qirlar lahza sayin o‘zga turlanar.

Shoir mahorati shundaki, tovushga taqlib sanalgan so‘zga ham mustaqil so‘zlarda bo‘lgani kabi chuqur ma’no yuklay oladi. Nazarimizda, bu “qur-qur”lar quruq emas, hodisadan oldingi xabar, bahordan oldingi epkin kabi taassurot qoldiradi:

“Qur-qur”lar to‘lmoqda ko‘kka muttasil,  
Qaytib kelayotir yurtga turnalar.

Boshqa bir she’rida shoir turnalarning bularga qo‘sishimcha ravishda muayyan bir xislati – balandlarda ucha olishini nazarda tutib ajoyib bir ijtimoiy epizod yaratadi. Unda osmonga talpingan varrak holati aniq va rangin bir tusda chiziladi:

Varrak ingranadi ko‘kda to‘lg‘anib,  
Unga parvo etmas bolakay xayol.  
Varrak ingranadi osmonni tanib,  
Sho‘rlikdan osmon ham so‘ray demas hol. [Omon Matjon. 2:166]

**PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI**

Varrak turna bo‘la olmasligi aniq. Lekin shoir nima uchun aynan varrak va turna qiyosini bermoqda. Vaholanki, varrak emas, o‘tmish salaflar kabi *zog’ (qarg‘a)u zag‘an* (qorchumchuq – burgutlar oilasiga mansub bo‘lib, burgutdan jussasi kichik bo‘ladi va undan baland ucha olmaydi) – qarg‘a va chivinlar bilan solishtirmadi. Masalan, Fuzuliyning “Baland uchqan bilan zohu zag‘an olamda boz bo‘lmas” misralari Xorazmda suvora ohanglarida qanot yozib yana ham mashhur bo‘lgan. Qarangki, bu o‘rinda ham shoir mahoratiga qoyil qolib, uning teran nigohi ko‘rgan haqiqatni anglay boshlaymiz: hech qachon tirik vujud bilan jonsiz jism teng bo‘la olmaydi. Birinchi navbatda odam va jamodot (noorganik olam)ni bir-biriga mezoni rost emas. U “olamni opichib turgan tog‘u tosh” bo‘lsa ham, “bari bir dard bilgan odamcha yo‘qdir”. Natijada varrak hissiz odamlar, insoniy xislatlaridan mahrum bo‘lgan kimsalar timsoliga aylanadi. Shuning uchun osmonni u nigohlariga ilmaydi. Juda past maromda ovoz chiqargan qushlar sadosini ham ilg‘agan osmon varrak vizillashini eshita olmaydi yoki eshitishni istamaydi. Varrakning yana bir jihat borki, bu ham shoir nigohidan chetda qolmagan, albatta. Bu ham bo‘lsa, varrakning birovning qo‘lida qaramligi, qancha baland uchish imkonni bo‘lsa ham, parvoz vaqt, hududi, ko‘lami – barcha-barchasi “unga parvo etmas bolakay” qo‘lida. “Qush tilini qush bilar” – deydi dono xalqimiz. Varrak qush bo‘lmasa ham, turnalar samoning ayrim sir-sinoatidan voqif bir jonzot o‘laroq uning nima demoqchi bo‘layotgani, nima istashi, nima xohishi borligini, xullas bor holini biladi:

Ko‘kka bosh uruvchi varrak holiga  
Turnalar bosh chayqab o‘tdilar saf-saf.  
Turnalar bilishar, qiyalar nega,  
Nega ingranmoqda varrak, ne istab?! [Omon Matjon. 2:166]

Bu bilan shoir jamiyatning eng katta qusurlaridan biri turnalar bilan varrak bir osmonda uchirish, ularni bir-biriga ko‘z-ko‘z qilish ekanidan ogohlantirmoqda. Bir qarashda turna va varrak haqida mulohazalarimiz shoir xayoliga keltirmagan talqinlarga to‘la tuyuladi. Lekin shunday bo‘lsa, Omon Matjon ijodida turna bahorning kuzga tahvili – yoshlikning o‘tib borishi, umr pallalari almashishi, tobora ziyodan zulmatga qadam qo‘yib borish azobi darakchisi ekani tasodifmi? “Turnalar uchishi” Omon Matjon o‘zi ochiq oydin ayon qilgandek, oydin umidlarning dilni tark etishi.

Turnalar uchdi,  
Bulutlar ko‘chdi.  
Og‘ochlarning barglari  
Yerlara tushdi.  
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,  
*Bahoringni bermagil kuza,*  
Tabassum qil! [Omon Matjon. 4:224]

Shoir uchun bahorda turnalar bir dunyo umid olib kelsa, kuzdag'i turnalar ham unga qish qirovlari hali kirib kelmasdan burun zimiston onlari oniyligini uqtirib ketayotgan his qiladi o‘zini. Shuning uchun ham odam o‘z eliga na issig‘i, na sovug‘i bor qo‘riqxonaning tojdor turnasi emas, yo bahor, yo kuz darakchisi bo‘lgan balandparvoz turna bo‘lishi lozimligidan so‘z ochadi. Shoir nazarida turnalarning o‘zaro bir safda, bir qurda bo‘lgani ularning asl muvaffaqiyati omillaridan. Erkinlik yo‘q joyda boshdag'i toj ham ma’nosiz – mana bu terannigoh shoir topilmasi:

Sen qo‘riqxonaning *tojdor turnasi* bo‘lma,

yurtingga *bahor* yo *kuz* xabarchisi bo‘l... [Omon Matjon. 3:9]

Omon Matjon she’riyatida shoir shaxsiyati uncha ko‘zga tashlanmaydigan tuyuladi. Aslida bu ham uning mahorat mezonlaridan biri bo‘lib, shoir har bir she’rida shaxsiyatining bir qirrasi aks etib turadi. Falsafiy jihatdan bir vujudda ikki shaxsiyat yashashi mumkin emas. She’riyat ham shoir qalb qo‘ri mahsuli ekan, unda o‘zga birovning aks etmaydi. Bu hatto shoir kimningdir nomidan monolog bitsa ham, dramatik asarlarda personajlar tilidan nimadir desa ham, sezilib turadi. “Ijodkor shaxs biografiyasi hayotiy voqealar yig‘idisini bo‘libgina qolmay, balki shoir qalbida kechgan tuyg‘ular manbasi sifatida ham qaraladi” [Ergasheva Sh.6:10] Ijodkor ruhiy dunyosiga kirib borishda biografik metod (asoschisi fransuz olimi Sent-Byov) deb atalgan metodning samarali jihatlaridan biri ham shundadir. Bu borada Javod Hayhatning asarni oydinlashtirish uchun san’atkor hayoti va shaxsiyatini tadqiq qilish; san’atkor psixologiyasi va shaxsiyatini oydinlashtirish maqsadida asarlarini misol keltirish [ Rasulov A. 5:77] haqidagi mulohazalari o‘rinlidir. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, shoir she’riyati an’anaviy obrazlarga ohoriy tus va ma’no bera olgani hamda yangi adabiyotimizni yangi obrazlar bilan boyita olgan. Ijodidagi timsollar tizimini manba e’tibori bilan ijtimoiy muhitga xos obrazlarga ko‘ra tabiat bilan bog‘liqlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Omon Matjon tabiat vositasida jamiyatni aks ettirish borasida o‘ziga xos uslub va tizim yarata bilgan shoir edi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jumaboyeva J. El bilsa bo‘ldi. – Toshkent: Istiqbol, 2018. – B. 63.
2. Omon Matjon. Seni yaxshi ko‘raman. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
3. Omon Matjon. Erkin havolarda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
4. Omon Matjon. Iyomon yog‘dusi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.
5. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 77.
6. Ergasheva Sh. O. Saida Zunnunova she’riyatida ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon muammosi. –Toshkent, 2008. – Б. 10.